


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“ZAMONAVIY TARIX FANI
METODOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

MATERIALLARI

(2021-yil 24-mart)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

TARIX O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**ZAMONAVIY TARIX FANI METODOLOGIYASINING
DOLZARB MUAMMOLARI**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

2021-yil 24-mart

NAVOIY-2021

келгуси тақдирини ҳал қилиниши, ўлканинг мухторият мақоми сақлаб қоллиниши ёки ўзгартирилиши, Туркистонда миллий давлатчилик тўлиқ шаклланиши лозим эди. Нафақат Туркистонда, балки бутун Россия империясининг собиқ ҳудудларида большевиклардан алоҳида мустақил тарзда биринчи бўлиб ташкил қилинган дастлабки ҳукумат айнан улар Қўқонга юборган ҳарбий кучлар (қизил гвардиячилар ва дашноқлар) томонидан 1918 йил 19-22 февралда қонга ботирилди. Қўқон шаҳрида ва унинг атрофларида мухториятчилар билан биргаликда ўн минглаб тинч аҳоли вакиллари ҳам ўлдирилди.

Бешинчидан, Туркистонда 1917 йил ёзида кучайган жаҳидлар ва қадимчилар ўртасидаги турли низо ва ихтилофлар тараққийпарварлар ва мухториятчилар сафида парокандалик ва ажралиш юз беришига олиб келди. Бир гуруҳ консерватор уламолар “Шўрои Исломия” ташкилотидан ажралиб, “Шўрои Уламо” ёки “Уламо” жамиятини тузишди. Бу жамият Тошкентдан ташқари Фарғона водийси ва Самарқандда катта нуфузга эга бўлган. “Шўрои Уламо” жамиятининг Тошкент шубҳаси раҳбари Шерали Лапин (у ҳам этник қозоқ бўлиб, Санкт-Петербург университети юридик факультетини тугатган ҳамда XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти ҳарбий губернатори маҳкамасида хизмат қилган эди) ҳам европача тарбияланган бўлиб, у ва тарафдорлари ўзларини уламо ҳисоблашса ҳам улар аслида Россиядаги социал-демократик ҳаракатнинг таъсирида социализм (коммунизм) ғояларини қабул қилишган эди. Айнан Шерали Лапин уламо ниқоби остида мухториятчилик ҳаракатига катта зарар етказди. У 1917 йил ноябрда бўлган IV қурултойда Туркистон Миллий Мажлиси аъзоллигига сайлангач, Миллий Мажлис раиси бўлишга рози бўлмади. Айрим маълумотларга қараганда, Миллий Мажлис фаолиятини 1917 йил декабрдан унинг бошқа аъзоси тошкентлик муфтий Садриддинхон Шарифхўжа Қози ўтли мувофиқлаштиришга ҳаракат қилган. Ш.Лапин бўлса Миллий Мажлис ҳамда мухторият ҳукумати фаолиятида 1917 йил декабрдан бошлаб умуман қатнашмайди. У большевизм ғояларини қабул қилиб, 1918 йил январдан бошлаб Тошкент уламоларининг ўзига эргашган радикал қисми билан биргаликда совет ҳокимияти томонига ўтади ҳамда уламочилар билан социалистларни яқинлаштиришга беҳуда уринади. Ш.Лапиннинг бу қарашлари кейинчалик Марказдан Туркистонга келган татар мусулмон ҳарбий коммунисти Ориф Кливлеев томонидан большевиклар ва мусулмонларнинг биргаликдаги таълимоти – “ислом социализми” ғоясини тарғиб ва ташвиқ қилишга олиб келди. Шунинг учун ҳам Мустафо Чўқай кейинчалик ёзган хотираларида ўзининг ҳамюрти ва собиқ сафдоши тўғрисида “Заволли Шерали мусулмон” деб қинов билан ёзади.

Олтинчидан, Туркистон Мухторияти ҳукумати большевикларнинг Қўқонга қилган дастлабки ҳужуми пайтида ағдариб ташланди. Минтақада бу пайтда мавжуд бўлган Бухоро амирлиги (дарвоқе, Туркистон ХКС раиси Ф.Колесов Қўқонда ғалаба қозонилгандан мағрурланиб кетиб Бухорони ҳам советлаштириш ва русллаштириш учун 1918 йил 28 февраль – 1 март кунлари Янги Бухоро – Қогонга келиб, Бухоро босқинини амалга оширди ҳамда Амир Саид Олимхонга сўзсиз таслим бўлиш ҳақида ультиматум қўйди, бироқ ўзи мағлубиятга учради) ва Хива хонлиги каби иккита “мустақил мусулмон” ўзбек давлати томонидан Қўқонга ҳарбий ёрдам юборилмади. “Ҳақ олинур, берилмас!” деб ўз пайтида ҳайқирган Бехбудийнинг чақирғига мухторият кунларида эмас, балки сал кейинроқ жавоб қайтарилди.

Еттинчидан, Туркистон Мухторияти ҳукумати большевиклар томонидан ағдарилгач, 1918 йил февраль ойи охирида аввал Қўқон ва унинг атрофларида, сўнгра бутун Фарғона водийси ва Самарқанд вилоятида совет режимига қарши истиқлолчилик ҳаракати бошланди. Маҳаллий аҳоли тинч парламент йўли билан озодликка эришиш мумкин эмаслигини тушуниб, қўлига қурол олди. Совет ҳокимияти йилларида коммунистик мафкура томонидан “босмачилик” деб қораланган бу ҳаракат қатнашчилари аслида Туркистон мустақиллигини ва озодлигини учун курашаётган истиқлолчилар эди. Россия давлати билан алоқаларни узишни истамаган ва унинг таркибида бўлишни хоҳлаган мухториятчилик ва жаҳидчилик ҳаракатлари намояндалари ҳамда миллий коммунистлар ва маҳаллий совет арбобларидан фарқли равишда истиқлолчилик ҳаракатида яхлит ва бўлинмас Туркистон мустақиллиги учун кураш ғояси устувор турган.

O'ZBEKISTON O'Z ISTIQLOL TARAQQIYOTINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Sh.Haitov, tarix fanlari doktori, professor, Buxoro davlat universiteti
A.Ahmadov, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.

O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritganligidan keyin taraqqiyot yo'lini belgilab olishda bir qat'ot asoslarga tayandi. Mustaqillik sharoitida yashash qaramlik asoratlaridan qutilish uchun milliy urf-odatlar va an'analar zahirida dunyo tarixiy tajribasini o'rganish asnosida bozor iqtisodiyotiga asoslangan,

ijtimoiy manfaatlariga yo'naltirilgan, ochiq demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish dasturini ishlab chiqish va amalga tadbqiq qilish vazifasi kun tartibiga dolzarb qilib qo'yildi. Mustaqil atamasi arabcha so'z bo'lib "qaram emas" degan degan ma'noni anglatadi. Mustaqillikning eng muhim belgilari davlatning dahlsizligi, o'z hududi va chegarasiga ega bo'lish, o'z boshqaruv hokimiyatini joriy etish, mustaqil konstitutsiyasi va harbiy tuzilmasi bo'lishini taqozo qiladi. Shuningdek, xalqaro huquq sub'yekti sifatida boshqa mamlakatlar bilan teng aloqalar o'rnatish pul birligiga ega bo'lish, qonunlar tizimi va davlat tilini joriy etish, o'z ramzlari: gerb, bayroq, madhiya o'z nomini o'zgartirish, taraqqiyot yo'lini belgilash, poytaxtini o'zgartirish huquqi kabi tamoyillar bilan belgilanadi. Mustaqillikning asosida nafaqat deyuri (siyosiy mustaqillik), shu bilan birga defakto (iqtisodiy mustaqillik) birdek muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekiston mustaqilligining nazariy konseptual asoslari mustaqillikka erishishimizdan oldin qabul qilingan bir qator tarixiy hujjatlarda va jarayonlarda ishlab chiqilishi uchun dadil qadamlar qo'yildi.

Avvalo konsepsiya atamasining mohiyati haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu tushuncha lotin tilidan olingan bo'lib, "konseptuo" – "majmua", "tizim" degan ma'nolarni anglatib, biror bir sohaga oid qarashlar va tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli hisoblanadi. Asosiy nuqtai-nazardan adabiyot va san'atda asarning asosiy g'oyasi konsepsiyani ifodalaydi. Avvalo, barpo etilayotgan mustaqil davlatning modeli (yo'li) shakl-shamoyili belgilab olinishi kerak. Ushbu nuqtai-nazardan qaraganda, "o'zbek modeli"ning shakllanishi O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li dastlabki davrda bir qator qiyinchilik va ziddiyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'ldi. SSSR parchalanganidan so'ng mustaqillikning nazariy konseptual asoslarini ishlab chiqish, borasida metodologik yondashuvlarning yangi yo'nalishlari yuzaga kelganligi sir emas. Milliy o'zlikning anglatishga xizmat qiladigan jarayonlar sovet hokimiyatining so'ngi yillaridayoq kechganligi tarixiy jihatdan o'z isbotini topmoqda. Mustaqillikning dastlabki odimlari 1989-yil 21-oktabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish to'g'risidagi Qonunida, 1990-yil 20-iyundagi Mustaqillik deklaratsiyasida, Respublikada 1990-yil 24-martdan birinchi bo'lib Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishida namoyon bo'ldi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarning rivojlanishi O'zbekistonning tom ma'noda mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonda e'tirof etish imkoniyatlarini yaratdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida evolutsion-tadrijiy, dialektik rivojlanish islohotchilik metodologiyasida bir qadar xilma-xilliklar yuz berganligini ham e'tirof etish kerak. O'zbekiston taraqqiyotida "turk modeli", "koreys modeli" kabilarni qo'llash tajribasi ham kutilgan natijani bergan emas. O'zbekiston taraqqiyotining nazariy konseptual asoslari O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 5 ta tamoyilida ya'ni bozor munosabatlariga o'tishning 5 tamoyili (1992-1993-yillar) da undan keyin, "o'zbek modeli"ni ustovor yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan tavsiyalarda o'zining aksini topdi. Mamlakatni siyosiy, iqtisodiy rivojlantirish jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish, kadrlar masalasi xalq turmush darajasini ko'tarish, kuchli ijtimoiy himoyani yo'lga qo'yish, jamiyat barqarorligi tinchlik, millatlar va fuqarolar totuvligi, hududiy yaxlitlik, himoya tizimi tashqi siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish asnosida yangi jamiyat qurishning yo'llari belgilab berildi. Bu zaminda dahriylikdan holi bo'lgan, din va dunyoviylik o'rtasidagi mo'tadil munosabatni jamiyat ma'naviy hayotiga olib kirishdek vazifa ham ko'ndalang qilib qo'yildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-marifiy, madaniy islohotlarning nazariy konseptual asoslari ishlab chiqilar ekan, uning zaminida bir qator tarixiy hujjatlar qabul qilinganligiga amin bo'lamiz. O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi, yangi mustaqil davlatning eng muhim tarixiy yutug'i bo'ldi desak adashmaymiz. O'zbekistonda amalga oshirilgan o'zgarishlarning tadrijiy davomi "Yagi O'zbekiston yangicha dunyoqarash" dasturi asosida O'zbekistonning rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan 5 ustovor yo'nalishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 muhim tashabbusi asnosida mustahkamlandi.

O'zbekiston mustaqilligining nazariy ustun va asoslari asrlar davomida xalqimiz tomonidan yaratilgan va bizga meros bo'lib qolgan milliy qadryatlar shuningdek, ma'naviy xazina hisoblangan "Avesto" singari yozma manbalar, ushbu eng qadimiy qo'lyozmada ilgari surilgan umuminsoniy g'oya va fikrlar majmuasi muhim rol o'ynaydi. Milliy qadryatlar bilan diniy qadryatlar uyg'unligi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, diniy ulamolarning ma'naviy merosi dunyoviy ilm egalarning asarlari biz uchun nazariy asos hisoblanadi. O'zbekiston rivojida istiqbolda xavfsizlik va barqarorlik tizimini mustahkamlash Yevroosiyo qitasidagi va dunyodagi mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish mintaqaviy, submintaqaviy va xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok qilish Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik va qavm-qarindoshlik munosabatlari takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jamiyatimizdagi ochiqlikni ta'minlash, erkin iqtisodiy raqobat muhitini yaratish, aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tizimini shakllantirish borasida olib borayotgan ishlari mustaqil O'zbekiston istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil. 29-dekabr. review.uz
2. Xolboev S. Milliy mustaqillik va taraqqiyotning O'zbek modeli. Monografiya. T.: "O'zbekiston", 2015-yil.
3. Qo'chqorov B. Milliy o'zlikni anglash va barqaror taraqqiyot. -T.: "Akademiya", 2013.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Г.Мўминова, тарих фанлари доктори, Қарши ДУ

Аннотация

Мазкур мақолада Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихини ўрганишнинг назарий-методологик асослари ёритилган. Соғлиқни сақлаш соҳасига доир бир қатор тадқиқотчиларнинг изланишлари қиёсий, тизимли ва миқдорий таҳлил, ретроспектив, муаммовий-хронологик, тарихий тадрижий каби усуллардан ва фанлараро ёндашувдан фойдаланилган ҳолда ёритилган.

Калит сўзлар: соғлиқни сақлаш тизими, тарих, математика ва миқдорий усуллар, трансформацион жараёнлар, тарихий даврлаштириш, статистик, синергетика каби методлар

Тарих шундай фанки, бунда ўтмиш ҳақидаги турли ахборотлар ҳаққоний ўрганилади, тизимлаштирилади ва умумлаштириб, яқиний хулосалар чиқарилади. Тарих оғзаки, ёзма ёки моддий шаклда халқ хотирасида авлоддан авлодга ўтади, унинг саҳифаларида ҳар бир даврдаги мавжуд тузум, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт, атроф-муҳит, миллий ва маданий анъаналар, урф-одатлар ҳақида яққол тасаввур ҳосил қилишга имкон яратадиган лавҳалар акс эттирилади. Хусусан, совет даври тарихий воқеалари ва жараёнлари ижтимоий-гуманитар фан мутахассислари асарларида ўз ифодасини топди. Баъзан ушбу фан йўналишларини ўрганиш ва ўқитишнинг методологияси, усул ва тамойиллари ҳам мавжуд шарт-шароитга мослаштирилиши натижасида тарихий воқеа ва ҳодисалар бузиб талкин этилди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон тарихини асл манбаларга таянган ҳолда тадқиқ этиш ва ўрганиш зарурияти келиб чиқди. Замон талабидан келиб чиқиб, тарихни ўрганишнинг янги методологияси, усул ва тамойилларини ишлаб чиқиш ҳамда тарихий воқелиқни янгича ёндашувлар билан баён этиш бошланди. Аммо мустақилликнинг илк даврида тарих йўналишидаги тадқиқотларда методология масаласида жиддий қийинчиликлар мавжуд бўлиб, аста-секинлик билан бу муаммолар бартараф этиб борилди.

Соғлиқни сақлаш мавзусига доир тадқиқотнинг назарий-методологик асосларини ишлаб чиқишда тарих йўналиши методологияси бўйича жаҳоннинг машҳур олимларидан М. А. Барг, П. М. Бицилли, М. Блок, Болингброк, Б. А. Губман, А. Я. Гуревич, И. Г. Дройзен, И. Д. Ковальченко, Е. де. Мичелис, А. Дж. Тойнби, Л. Февр, Э. Фримен, А. Д. Хенопол, К. Ясперс ва бошқаларнинг асарларидан унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Хусусан, тарихий воқеа ва ҳодисаларга баҳо бериш ва уларни таҳлил қилишда М.Блок, Л.Февр ва Э.Фримен асарларига таяниб соғлиқни сақлаш соҳасини бошқа фанлар билан чамбарчас боғлиқликда ўрганишга ҳаракат қилинди.

Соғлиқни сақлаш тизими тарихини тадқиқ этишда математика ва миқдорий усулларга кучли аҳамият берилдики, бунда айниқса И.Д.Ковальченконинг илмий асарлари қўл келади. Бу аввало ижтимоий-иқтисодий ва статистик маълумотларни қайта ишлаш жараёнида қўлланилади. Ушбу усулнинг қўлланилиши натижасида соҳага ажратилган маблағ, даволаш ўринлари ва тиббий кадрлар сонининг бошқа ҳудудларга нисбатан кўп ёки камлиги аниқланади.

Соҳага доир тадқиқотларда қиёсий, тизимли ва миқдорий таҳлил, ретроспектив, муаммовий-хронологик, тарихий тадрижий каби усуллардан ва фанлараро ёндашувдан фойдаланилади. Соғлиқни сақлаш соҳасининг совет ҳокимияти давридаги тарихини ўрганиш жараёнида тарихий далилларни қиёсий баён этишда қиёсий таҳлил усулига таянилади. Хусусан, совет давлатининг турли ҳудудларида аҳоли саломатлигини муҳофаза қилиш юзасидан олиб борилган сиёсатнинг турлича эканлигини тасдиқловчи далилларни келтириб, бунда аввало, аҳоли жон бошига даволаш ўринлари ва тиббиёт кадрлари сони солиштирилади. Шунингдек, Ўзбекистон аҳолиси турли ижтимоий ва юқумли касалликларга чалиниш кўрсаткичларининг юқорилиги мамлакатнинг марказий ҳудудлари билан таққослаб таҳлил этилади.

Миқдорий таҳлил усулидан соғлиқни сақлаш соҳасининг моддий-техника базаси, хусусан, даволаш муассасалари ва ўринлари, тиббиёт кадрлари билан таъминланиши каби масалаларни таҳлил этишда, жумладан уларнинг сон жиҳатдан ўсиб бориши ёки камайишини каби ҳисоб-

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI.....3

1-SHO'BA. TARIX FANI METODOLOGIYASINING MAZMUN-MOHİYATI

ЗАМОНАВИЙ ТАРИХ ВА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАРНИ
ФАНЛАРАРО ЎРГАНИШ МАСАЛАЛАРИ
М.Рахимов, ЎзР ФА хузуридаги Ўзбекистоннинг энг янги тарихи масалалари бўйича
Мувофиқлаштирувчи-методик маркази бўлим раҳбари,
тарих фанлари доктори, профессор.....5

ABU RAYHON BERUNIYNING "QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN
YODGORLIKLAR" ASARINING AYRIM METODOLOGIK JIHATLARI
R.Rajabov, Falsafa fanlari nomzodi, NavDPI.....11

ABU JA'FAR NARSHAXIYNING "BUXORO TARIXI" ASARIDA TADQIQOT METODLARI
R.Rajabov, Falsafa fanlari nomzodi, NavDPI.....19

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭНГ ЯНГИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ АСОСИЙ
ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ
О.Б.Абдимўминов, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
ЎзР ФА хузуридаги Ўзбекистоннинг энг янги тарихи маркази.....22

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИСЛОХОТЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ:
ИНСТИТУЦИОНАЛ ВА НОИНСТИТУЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР
Ж.Мавлонов – сиёсий фанлар доктори (DSc),
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси масъул ходими.....26

КИШИЛИК ТАРИХИНИ ФОРМАЦИЯ ВА ЦИВИЛИЗАЦИЯ ЁНДАШУВЛАРИ
АСОСИДА ДАВРЛАШТИРИШ
Ж.Я.Яхшилик, Самарқанд давлат университети профессори, фалсафа фанлари доктори.....28

ЗАМОНАВИЙ ФАН ВА МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАР
(тарих фани мисолида)
Н.О.Сафарова, фалсафа фанлар доктори, профессор,
Навоний давлат педагогика институти.....32

ЎРТА ОСИЁ ТАРИХНАВИСЛИК МАКТАБЛАРИДА ОҒЗАКИ ТАРИХ
ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ
З.А.Илҳомов, тарих фанлари номзоди, доцент Низомий номидаги ТДПУ.....34

ИСТОРИЧЕСКОЕ ПОЗНАНИЕ И ПРОБЛЕМА ЕЁ ОБЪЕКТИВНОСТИ
А.Аминова, кандидат исторических наук,
Навонийский государственный педагогический институт.....37

2-SHO'BA. ZAMONAVIY TARIX FANI METODOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI: VAZIFALAR VA YECHIMLAR

ТУРКИСТОН МУХТОРИЯТИ ХУКУМАТИ ХАМДА ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ МАЖЛИСИ
АЪЗОЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА ЯНГИЧА МЕТОДОЛОГИК ЁНДАШУВ
К.Ражабов, тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон ФА Тарих институти етакчи илмий ходими.....39